

**Transport nazorati inspeksiyasi
boshlig`i J.Karimovga**

TAKLIF

Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan tashkilotning ochiqlik va shaffoflikni ta`minlash yo`lida olib borilayotgan faoliyati yuzasidan amalga oshirayotgan ishlari hisoboti Jamoatchilik kengashi yig`ilishida muhokama qilindi.

Inspeksiya o`z ishini ochiqlikka asoslantirgan holda olib borayotgani, joriy yilning o`tgan vaqti davomida 2 ta press-tadbir (matbuot anjumani va brifing) o`tkazilgani, ochiq muloqot va sohaga oid ko`rsatuvlarda muntazam qatnashayotgani ijobiy holat sifatida baholandi.

Inspeksiya ochiqlik va shaffoflikni ta`minlash faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida ochiq muloqotlar, press-tadbirlar (matbuot anjumani, brifing, press-tur)larni viloyatlarda ham tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu o`z navbatida hududiy bo`limlar ishini yangi bosqichga olib chiqish, rahbarlarning OAV bilan doimiy muloqotini samarali yo`lga qo`yish, rahbarlar mas`uliyatni oshirishga zamin yaratadi.

**Transport nazorati inspeksiyasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi
raisi o`rinbosari**



A.Boylarov